

O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi

TDIU doktoranti

daminovaogiloy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari bozorining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolar, oziq-ovqat mahsulotlari bozorining asosiy ta'minotchisi hisoblangan qishloq xo'jaligi bozorlari, oziq-ovqat mahsulotlari bozorining asosiy elementlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekiston oziq-ovqat bozorining ta'minlanish darajsi va uni rivojlantirish yo'llari borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *oziq-ovqat bozori muammolari, oziq-ovqat narxlarining o'zgarish darajasi, oziq-ovqat eksporti va importi, tartibga solish usullari, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirish vositalari.*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОГО РЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Даминова Угилой Мирзакул кизи

Докторант ТГЭУ

daminovaogiloy@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены роль продовольственного рынка в экономике страны, основные проблемы развития продовольственного рынка, сельскохозяйственные рынки, являющиеся основными поставщиками продовольственного рынка, основные элементы продовольственного рынка и их основное видение. обсуждаются сведения о показателях. Также имеются мнения об уровне обеспеченности продовольственного рынка Узбекистана и путях его развития.

Ключевые слова: *проблемы продовольственного рынка, изменение цен на продовольствие, экспорт и импорт продовольствия, методы регулирования, инструменты развития продовольственного рынка.*

CHALLENGING PROBLEMS OF THE DEVELOPMENT OF THE FOOD MARKET IN UZBEKISTAN

Daminova Ugiloy Mirzakul kizi

Doctoral student of TSUI

daminovaogiloy@gmail.com

Abstract: In this article, the role of the food market in the country's economy, the main problems in the development of the food market, the agricultural markets that are the main suppliers of the food market, the main elements of the food market and their main vision are discussed. information about the indicators is given. There are also opinions on the level of supply of the food market of Uzbekistan and ways of its development.

Keywords: *problems of the food market, changes in food prices, export and import of food, regulation methods, tools for developing the food market.*

KIRISH

Jahonda kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiliginin bartaraf etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlatning asosiy hamda strategik vazifasi bo'lib, uning optimal yechimi oziq-ovqat sanoati tarmog'ini, jumladan qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, balki, yuqori daromad keltiruvchi tarmoq hamda bandlikni oshirishda ham muhim hisoblanadi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari bozoridan Xitoy 1630 mlrd., AQSH 1011 mlrd. va Italiya 201,7 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad ko'rigan bo'lsa, Germaniyaning faqatgina qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari savdo aylanmasi 114,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Shuningdek, Kanadada 7,6 mln. va Rossiyada 2 mln. nafardan ortiq aholi oziq-ozqat sanoati tarmoqlarida band.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib, 2023-yilda respublika bo'yicha sanoat asosida 65174,7 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari va 17968,3 mlrd. so'm ichimliklar ishlab chiqarilgan, shuningdek 404648,6 mlrd. so'm qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsada, shu davrda 1962,4 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlarini import qilinib, 4141,8 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan. Ushbu raqamlar mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirib, oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik eksportyor davlatlar qatoriga qo'shilish orqali oziq-ovqat sanoatini daromadli tarmoqqa aylantirish hamda mamlakat iqtisodiyotiga shu orqali qo'shimcha investitsiya kiritish mumkin.

Hozirgi davrda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslash hajmini oshirish hamda tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan «O‘zbekiston - 2023» strategiyasi qabul qilingan¹. Unda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishslash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash ko‘rsatkichining 25 foizdan yuqori bo‘lishini ta‘minlash kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori “bozor” toifasining ajralmas qismi bo‘lib, bozorning mohiyatini tashkil etuvchi ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga xos xususiyat va aloqalarga ega. Shuningdek u iste’mol tovarlari bozori bo‘lib, bozorning ushbu turiga xos bo‘lgan va uni boshqalardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Yangi iqtisodiy sharoitlarda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish qonuniyatlarini asoslash, uning mohiyati, vazifalari, tarkibiy elementlarini va oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlari, uning roli va ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi o‘rnini aniq tushunishni talab qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozori insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida turlicha talqin etilgan.

Xususan, L.A. Leontiev va D.V. Shpakovskiylar oziq-ovqat bozoriga quyidagi ta’rifni bergen: “Oziq-ovqat bozori – bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining ayriboshlash sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari yig‘indisi bo‘lib, ular orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish va sotib olish amalga oshiriladi”.

Pyankova K.V. va Yasreva Ye.Alar esa, “oziq-ovqat mahsulotlari bozorini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini, shu jumladan, talab, taklif va narxlarni tashkil etuvchi agrooziq-ovqat majmui va savdo tarmog‘ining xo‘jalik yurituvchi subyektlarini ishlab chiqarish, muomalaga chiqarish va taqsimlash bo‘yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi”, - deb ta’riflaydi.

Novoselov A.S. oziq-ovqat bozorini rivojlangan tovar-pul munosabatlari asosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini minimal taqsimlash xarajatlari bilan qondirishni ta‘minlaydigan muomalaga sohasi sifatida belgilaydi². Bizning fikrimizcha, bu formula ham o‘zining butun mohiyatini yetarlicha ochib bera

¹ <https://lex.uz/docs/-6600413>

² Новоселов, А.С. Региональный потребительский рынок. Проблемы теории и практики / А.С. Новоселов / Отв. ред. В.В. Кулешов. - Новосибирск: Сибирское соглашение, 2002. - 364 с.

olmaydi, chunki u bozorning faqat infratuzilmaviy komponentini aks ettiradi. Goncharov V.D. va Zinina L.I. oziq-ovqat bozorini oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilishni qamrab oluvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida belgilaydilar³.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori - mavjud resurslardan foydalangan holda iste'molchilarni oziq-ovqat mahsulotlariga, qishloq xo'jaligida qayta ishslash korxonalarini esa xom ashyyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan, sotuvchilar va xaridorlarning o'zaro munosabatlarini, narx darajasini, talab va taklif nisbatini, aholining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasidagi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlashni belgilaydigan, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, muomalaga chiqarish va sotish jarayonida rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlardir.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishida mavzuning dolzarbligi, mahalliy va xorijiy mamlakatlar tadqiqotchi olimlarining oziq-ovqat mahsulotlari bozori mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilgari surgan nazariyalari hamda bildirgan fikr mulohazalari o'rganilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, oziq-ovqat bozorini tartibga solish mexanizmi ishning asosiy maqsadi etib belgilangan. Maqsadga erishishda oziq-ovqat bozorini rivojlantirish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan tahlil etilgan, aniqlangan omillar yordamida boshqarish mexanizmi jarayoni va tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqot ishida induksiya va deduksiya, tizimli va mantiqiy tahlil hamda iqtisodiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston oziq-ovqat bozori muhim ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishni hamda oziq-ovqat bozorlarini boshqarishning davlat tizimini o'zgartirish zarurligini ta'minlaydigan mexanizm hisoblanadi. Bunday sharoitda oziq-ovqat bozorini tartibga solish usullari va vositalarining samaradorligini oshirish muammozi ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Mamlakatning oziq-ovqat bozori muammolarini muvaffaqiyatli hal etish milliy institutsional tizim darajasida bozor jarayonlariga tartibga soluvchi ta'sirni kuchaytirish yo'llarini izlashni oldindan belgilab beradi. Shu bilan birga, oziq-ovqat bozorini iqtisodiy tartibga solish vositalarining butun majmuasidan foydalangan holda tartibga solish bo'yicha yangi talablar paydo bo'lishining asosiy sababi bo'lgan tashqi muhitdagi o'zgarishlarning kuchayishi dinamikasini ham hisobga olish kerak.

³ Гончаров, В.Д. Формирование и функционирование товарных рынков в России / В.Д. Гончаров. - М.: Агронитэпп, 2001. - 166 с. Зинина, Л.И. Формирование и развитие молочнопродуктового подкомплекса АПК, специализированного рынка молока и молочной продукции / Л.И. Зинина. - Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 2001. - 212 с. и др.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qayta ishslash sektorini o‘z ichiga olgan oziq-ovqat bozori iqtisodiyotning turli tarmoqlarining o‘zar ta’siri orqali ishlaydi. O‘zbekiston oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning dolzARB muammolari qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qayta ishslash iqtisodiyotning turli tarmoqlarining o‘zar ta’siri orqali amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat bozorining holatini tavsiflash uchun asosiy elementlar: bozor sharoitlari, infratuzilma va uning subyektlari kontekstida uning holati va tendensiyalarini aniqlash imkonini beradigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval

Oziq-ovqat bozori holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi⁴

Oziq-ovqat bozori elementlari	Ko‘rsatkichlar
Bozor konyukturasi	<ul style="list-style-type: none"> - umumiy iqtisodiy: yalpi ichki mahsulot hajmi va dinamikasi, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, bandlik darajasi va dinamikasi, aholining real daromadlari va boshqalar; - tashqi, ichki va mintaqalararo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlari: sotish hajmi va dinamikasi, chakana va ulgurji savdo, tashqi va ichki tashish, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va tayyor mahsulot eksporti va importi va boshqalar; - pul-kredit sohasi ko‘rsatkichlari: valyuta kursi, aksiyalar, diskont stavkasi, bankrotlik soni va boshqalar; - investitsiyalar hajmi; - buyurtmalar hajmi; - narxlar darajasi va dinamikasi va boshq.
Bozor infrastrukturasi	<ul style="list-style-type: none"> - bozor infratuzilmasi ob'ektlarida savdo operatsiyalari hajmi; - birjalar, ulgurji bozorlar, ulgurji do‘konlar, savdo uylari, yarmarkalar, qishloq bozorlari, chakana savdo do‘konlari va boshqalar; - bozor infratuzilmasidan tashqaridagi savdo operatsiyalari hajmlari.
Bozor subyektlari	<ul style="list-style-type: none"> - xaridorlar tarkibi va tuzilmasi: aholi, qayta ishslash korxonalari, savdo korxonalari, davlat organlari va boshq. - sotuvchilar tarkibi va tuzilmasi: qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar, oziq-ovqat mahsulotalri sotuvchilar, oziq-ovqat mashsulotlarini import qiluvchilar va boshq.

Mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish davlat aralashuvining keng doiradagi shakllari, usullari va vositalarini qo‘llash orqali amlaga oshiriladi. Bu esa mamlakatda oziq-ovqat bozorini ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotga mos keladigan holatda shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

⁴ Muallif ishlanmasi

Biz mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi holatini va oziq-ovqat bozorini tartibga solishning asosiy chora-tadbirlarini umume'tirof etilgan mezonlar: mamlakatning oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlashi, iste'mol darajasi va iste'molchilar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy mavjudligini tahlil qilish jaryonida o'rganamiz.

Oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning muhim muammolaridan biri aholining iste'mol talabining o'sishini cheklovchi omillar: narxlarning ko'tarilishi va inflyatsiya darajasidir. Uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlari bozoridagi narxlar o'zgarishi bilan solishtirganda kamroq harakatchan diapazonda ekanligi empirik tarzda isbotlangan. Shunday qilib, oziq-ovqat bozorida narxlarning yillik o'sishi o'rtacha 8,8 % ni, aholining ixtiyoriy daromadlarining o'sishi esa taxminan 4,6% ni tashkil qiladi.

Shu bilan bir qatorda, global iqlim o'zgarishi, suv tanqislashuvi, resurslarining cho'llashuv tobora darajasining oshishi oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisi bo'lgan dehqonlarimiz va soha olimlari oldiga ko'plab muammolar echimini topish masalasini qo'yemoqda. Bu xavflarning oldini olish, tuproq unumdorligini oshirish, sohani resurs tejaydigan va yuqori unumli yangi texnikalar bilan uzluksiz ta'minlab borish, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida agrotexnologiyalarni joriy etish, haqiqiy bozor mexanizmlarini joriy qilish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda yetuk bilimga ega mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham dunyoda sodir bo'layotgan geosiyosiy holatlar hamda tez o'zgarib borayotgan global iqlim o'zgarishlarini teran anglab, mamlakatimiz qiyosiy ustunligi va imkoniyatlarini hisobga olib, ish tutishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Ushbu ustuvor vazifani ta'minlashning birdan-bir yo'li bu sohaga ilm-fan va innovatsiyalarni keng joriy etishdir.

Mamlakat aholisini mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni baholashni o'z ichiga olgan oziq-ovqat xavfsizligining miqdoriy jihatni, globallashuvning hozirgi bosqichida iqtisodiy asoslangan import va eksport tahlili dolzarb masala hisoblanadi. Bunda quyidagi parametrlar bo'yicha tadqiqot olib borish zarur ko'rindi: O'zbekistonda oziq-ovqat va qayta ishslash sanoatining ishlab chiqarish hajmi, oziq-ovqat mahsulotlarini import va eksport qilish bilan bog'liq xavflarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 62,6 mlrd. dollar, shundan eksport 24,4 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu aylanmada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti qariyb 2 mlrd. dollarni yoki umumiy hajmga nisbatan 8,2 foizni tashkil etdi.

Meva-sabzavot eksporti 2023-yilda 1,5 foizga, 1785,4 ming tonnadan 1761,1 ming tonnaga kamaydi. Gilos 58,9 foizga, o'rik 6,9-martaga ko'paydi. Bunga o'tgan yilning yanvar oyida respublikamiz hududiga kirib kelgan anomal sovuq natijasida,

uzum, meva va issiqxonalarda etishtiriladigan mahsulotlarga kata zarar etishi sabab bo‘ldi. Natijada, uzum eksporti o‘tgan 2022-yilga nisbatan 55,9 foizga, karam eksporti 19 foizga, shaftoli 1,3 foizga, pomidor 23,8 foizga va quritilgan uzum 18,3 foizga kamayishi kuzatildi. Aksincha mosh eksporti 28,4 foizga, qovun-tarvuz 7,7 foizga, quritilgan olxo‘ri 45,3 foizga, piyoz 45,5 foizga, gilos 58,9 foizga, o‘rik 6,9-martaga ko‘paydi⁵.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mamlakatlar faqat bir nechta yirik eksportchilardan iborat bo‘lgan oziq-ovqat savdo tarmog‘idagi uzilishlarga chidamliligi past darajada. Oxirgi 2 yillik savdo aylanmasida O‘zbekiston ham bundan mustasno bo‘la olmadi va import hajmi eksportga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Xususan, eksport hajmi 105,7 foizga o‘sgan bo‘lsa, import hajmi esa 121 foizga ortgan.

Umumiy oziq-ovqat mahsulotlari va ularning xom-ashyolari importi 3 812,1 mln. dollarni yoki 109,8 foizni tashkil etdi. Jumladan, donli ekinlar 937,9 mln. dollar (112,4%), un va un mahsulotlari 277,8 mln. dollar (122,2%), shakar, xom-ashyosi va undan tayyorlangan mahsulotlar 770,1 mln. dollar (12,4%), kofe, choy mahsulotlari 110,2 mln. dollar (131,3%), go‘sht va go‘sht mahsulotlari 354,4 mln. dollar (110,9%), sabzavot va mevalar 269,2 mln. dollar (120,0%), sut mahsulotlari 123,3 mln. dollar (133,4%), har xil oziq-ovqat 148,2 mln. dollar (50,3%) va ichimliklar 171,8 mln. dollar (135,7%), o‘simgan yog‘lari 448,6 mln. dollar (80,7%) mahsulotlar import bo‘lgan⁶.

Oziq-ovqat ta’mnotinining deyarli doimiy beqarorligi Maltusning hosildorlikning pasayib borishi nazariyasi yoki qishloq xo‘jaligining tabiiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqligi, agrar sektorning etarli darajada rivojlanmaganligi bilangina emas, balki ayrim davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti darjasini hamda aholi asosiy qismining qashshoqligi sababli jahon bozori narxlari bo‘yicha oziq-ovqat sotib olishga qurbi etmasligi ham muhim sabab ekanligiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi.

Oziq-ovqat amhsulotlari bozorining mavjudligi oziq-ovqat xavfsizligi sohasida vaziyat qay darajada ekanligiga baho beruvchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichni uch asosiy mezonlar bo‘yicha aniqlashimiz mumkin:

- eng zarur qishloq xo‘jalik mahsulotlari (non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, sut va sut mahsulotlari, tuxum, go‘sht) tibbiy normativlariga ko‘ra iste’mol qilish darjasisi;

- iste’molning mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotlar bilan ta’minlanganlik darjasisi;

- oziq-ovqat mahsulotlari importi, eksporti darjasisi.

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona qo‘mitasi sayti ma’lumotlari

Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, mahsulot ishlab chiqarishga yangi va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori unumli va samarali texnikalar parkini kengaytirish, ekin navlari va chorva mollari zotini yaxshilash, urug‘chilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga puxta o‘ylangan ishlar amalga oshirildi.

Respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida tarkibiy o‘zgarishlar siyosati:

- mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko‘tarish, ya’ni ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YaIM, eksport kabi ko‘rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

- tashqi bozorlardagi kon'yunktura o‘zgarishlariga kam ta’sirchan bo‘lgan tarmoqlar va sohalarning YaIM va bandlikdagi ulushining yuqori bo‘lishini ta’minalash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxona va tarmoqlarning xom ashyo va butlovchi qismlar bilan ta’minalishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish;

- yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan bilan qurollangan, arzon va sifatlari, tashqi bozorda bemaolol raqobatga kirisha oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko‘rsatkichlaridagi ulushini oshirish;

- kon'yunktura o‘zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital sig‘imi past bo‘lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi salmog‘ini oshirishga erishish yo‘nalishlarida olib borilmoqda.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqr qayta ishlangan, tayyor, qo‘silgan qiymat hissasi yuqori bo‘lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalashda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash tizimi hamda raqobatbardoshlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan bozor infratuzilmasi yo‘qligi, ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning talab qilinadigan standartlarga mos kelmasligi oziq-ovqat bozoriga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shunga qaramasdan, Respublika oziq-ovqat bozorlarida so‘nggi yillarda ijobiy rivojlanish dinamikasi kuzatildi, uning holati deyarli barcha asosiy turdagи mahsulotlar uchun barqaror bo‘lib kelmoqda. Respublikaning oziq-ovqat bozori to‘yinganligi, jismoniy taqchillikning yo‘qligi, oziq-ovqat bozorida yuqori raqobat, aholi talabining ortishi, chakana savdo aylanmasining o‘sishi bilan ajralib turdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, mamlakatning oziq-ovqat bozori mintaqqa iqtisodiyoti tarkibida muhim element hisoblanadi. Uning yordami bilan aholining asosiy ehtiyojlaridan biri amalga oshiriladi va bu mintaqaviy rivojlanish uchun rag‘bat bo‘lishi mumkin. Har qanday davlatda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanishi, uning faoliyati barqarorligi, aholi uchun mahsulotlar mavjudligi, organik va fermer xo‘jaliklarining mahsulotlari taklifi bilan ta’minalash mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining muhim vazifalari hisoblanadi. Bularga erishish esa, mamlakat aholisining hayot sifatini oshirishga, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali viloyatning ijtimoiy faol va mehnatga layoqatli aholisini ish bilan ta’minalashga, investorlarni jalb qilishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Buning natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati ko‘rsatkichlari yaxshilanadi va bu uning raqobatbardoshlik darajasini oshiradi. Bu esa, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirish muhimligini va raqobatbardoshlikni baholash omillari tizimida mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlarini hisobga olish zaruratini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, oziq-ovqat mahsulotlari bozori iqtisodiy makonning bir shakli sifatida bir-biri bilan, shuningdek, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin bo‘lgan ichki ierarxiyaga ega bo‘lgan xususiyatlar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi va uni o‘rganishga tizimli yondashuvni talab qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozori murakkab tuzilma bo‘lganligi sababli, tabiiyki, uning shakllanish mexanizmi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori har qanday mamlakatning sanoat bozorlari tizimidagi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Oziq-ovqat bozorini rivojlantirish strategiyasi ikki yo‘nalishli vazifani hal qilishi kerak: bir tomondan, qishloq aholisi uchun yuqori turmush darajasini va qulay yashash muhitini ta’minalash, boshqa tomondan oziq-ovqat xavfsizligiga erishish.

Tadqiqot natijalarini sarhisob qilsak, O‘zbekiston oziq-ovqat bozorining dinamik ishlashini ta’minalash uchun davlat darajasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilgan bir qator tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ta’kidlashimiz mumkin:

- 1) O‘zbekiston ichki oziq-ovqat bozorini past sifatli mahsulotlarning kirib kelishidan himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish;
- 2) go‘sht ishlab chiqarishni davlat byudjetidan moliyalashtirish orqali qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni ta’minalash: ixtisoslashtirilgan hududiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash, naslchilik bazasini rivojlantirish, go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarishda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yaxshiroq ta’minalash uchun investitsiya kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash;

3) ishlab chiqarishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsion qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

4) O'zbekiston aholisining kam ta'minlangan qatlamlariga ichki oziq-ovqat yordami tizimini yaratish orqali oziq-ovqatning iqtisodiy mavjudligini tavsiya etilgan tibbiy standartlar darajasiga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Leont'eva L.A., Shpakovskii D.V. Взаимодействие сельхозтоваропроизводителей на продовольственном рынке [The interaction of agricultural producers in the food market]. Orenburg, Orenburg State Agrarian University Publ., 2010, 165 p.

2. Пьянкова, К. В. Развитие агропродовольственного рынка региона на основе совершенствования межрегиональных отношений / К. В. Пьянкова, Е. А. Ясырева // Экономика АПК Предуралья. - 2011. - № 1. - С. 82-86.

3. Кураласва А.А. Региональные особенности формирования и функционирования продовольственного рынка: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. эконом. наук (08.00.05)/ Нальчик - 2011 г.

4. Гончаров, В.Д. Формирование и функционирование товарных рынков в России / В.Д. Гончаров. - М.: Аг- рониитэипп, 2001. - 166 с. Зинина, Л.И. Формирование и развитие молочнопродуктового подкомплекса АПК, специализированного рынка молока и молочной продукции / Л.И. Зинина. - Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 2001. - 212 с. и др.

5. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi». - Т.: O'quv qo'llanma. «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12-b.;

6. Karimov M.A. «Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish»./Monografiya. Andijan: «STEP BY STEP PRINT» MChJ, 2021.- 100 b.

7. Бурдуков П. Т., Саётгалиев Р. З. Россия в системе глобальной продовольственной безопасности. М., 1999. С. 135.

8. Gorb O.A., Yasnolob I.A., Protsiuk N.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. Annalysis of agrarian science 14 (2016) 191-195.;

9. Нуралиев С. У. Продовольственный рынок: проблемы становления и перспективы развития. Волгоград, 2003. С. 280.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.